

## KAMBAG'AL OILALAR REYESTRIGA KIRITILGAN OILALARDAGI YOSHLARNI SHAXSIY RIVOJLANISHIDAGI DAVLAT SIYOSATI

*B.T.G'anixo'jayev*

*Parkent tumani Davlat xizmatlari  
markazi sho'ba boshlig'i*

**Annotatsiya:** 2025-yil 20-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 222-sonli farmoni bilan "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimida tub islohotlar e'lon qilindi. 2026-yil 1-yanvardan yoshlar daftari mexanizmi — 6 ming nafar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'maklashish, 30 ming nafar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning ta'lim jarayonida ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish, "Mutolaa" loyihasi doirasida ilmiy-ommabop, badiiy kitoblarni muntazam o'qib boruvchi yoshlarning ulushini 10 foizga oshirish, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 100 ming nafar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida xorijiy tillarni o'zlashtirgan yoshlar ulushini 30 foizga oshirish ko'zda tutilgan. Bu maqolada farmon mazmuni, fuqarolar uchun keltirilayotgan yangiliklar va ularning ijtimoiy himoyaga ta'siri tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** Yoshlar ijtimoiy shartnomasi, Yoshlar yagona elektron platformasi.

*Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan  
shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga,  
sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam  
olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar  
yaratadi.*

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,  
79-moddasi, birinchi qismi)*

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda "Yoshlar daftari" ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazorat qilib borish tizimi bo'lib xizmat qilmoqda. "Yoshlar daftari" jamg'armasi orqali kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarning 14 yoshdan – 30 yoshgacha bo'lgan a'zolarini jamiyatda o'z o'rnini topishiga, kamolotga yetishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda o'tkazilgan islohotlarning ham aksariyati yoshlarni rivojlantirishga, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishiga, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgani ham bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2025-yil 20-noyabrda qabul qilingan 222-sonli ““Yoshlar daftari” jamg‘armalari orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni davlat tomonidan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi tomonidan beriladigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa turdagi yordamlarni nafaqat kengaytirish, balki, yoshlarga moddiy yordam bilan cheklanib qolmay, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlashga qaratilgani ham shular jumlasidandir.

✓ 16 ming nafar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga ko‘maklashish;

✓ 30 ming nafar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning ta’lim jarayonida ijobiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga erishish;

✓ “Mutolaa” loyihasi doirasida ilmiy-ommabop, badiiy kitoblarni muntazam o‘qib boruvchi yoshlarning ulushini 10 foizga oshirish;

✓ “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 100 ming nafar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish;

✓ “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida xorijiy tillarni o‘zlashtirgan yoshlar ulushini 30 foizga oshirish ushbu Farmonning asosiy maqsadlari etib belgilandi.

Mazkur Farmon IV qismda iborat bo‘lib. I qism “Maqsadlar”, II qism “Yoshlar bilan ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirish”, III qism ““Yoshlar daftari” jamg‘armalari orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish”, IV qism “Farmon ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat” deb nomlangan.

2026-yil 1-fevraldam boshlab, Farmonning 1-ilovasida ko‘rsatilgan quyidagi ijtimoiy yordam turlari individual reja asosida Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalardagi yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan yoshlar ijtimoiy shartnomasi orqali taqdim etiladi:

- Kamida 3 nafar yoshlarning bandligi va ijtimoiy faolligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun grant ajratish;

- 6 oy davomida muntazam sport va san’at to‘garaklariga qatnashayotgan yoshlar uchun maxsus sport formasi, inventar yoki musiqa va cholg‘u asboblarni xarid qilish;

- Avtomototransport vositalari haydovchilik guvohnomasining “A”, “B”, “D” va “DE” toifalarini olish bo‘yicha o‘quv kursi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish;

- Kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlari o‘quvchi-talabalarining to‘lov-kontrakt summasini to‘lab berish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga turarjoy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash;

- Yoshlarning tadbirkorlik, an'anaviy va zamonaviy kasblarni egallash, axborot texnologiyalarini o'rganish va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha o'quv kurslarida o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidorli yoshlarning ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi o'quv kurslari uchun subsidiya ajratish;

- Yoshlarning ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi olimpiada, tanlov va musobaqalarda qatnashish xarajatlari uchun subsidiya ajratish;

- Yoshlarga ta'lim, madaniyat va san'at, sport, axborot texnologiyalari sohasiga va fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta'lim tashkilotining noturar joy ijarasi yoki zarur jihozlar bilan ta'minlash xarajatlari uchun subsidiya ajratish;

- Yoshlar uchun safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni bepul o'tash imkoniyatini yaratish.

Individual reja asosida Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalardagi yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan yoshlar ijtimoiy shartnomasi yoshlarga quyidagi shartlar asosida taqdim etiladi:

- ✓ ta'lim olishni uzluksiz ravishda amalga oshirib borish (uzrli sabablar bundan mustasno);

- ✓ ta'lim jarayonida ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish;

- ✓ volontyorlik faoliyatini amalga oshirish;

- ✓ "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan loyihalarda qatnashish;

- ✓ ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy kitoblarni muntazam mutolaa qilish;

- ✓ tadbirkorlik yoki o'zini o'zi band qilish asosida faoliyatini yo'lga qo'yish;

- ✓ xorijiy tillarni o'zlashtirish bo'yicha kamida B1 darajasiga erishish.

Bunda mazkur shartlarning aniq turlari ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning xususiyatidan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda bosqichma-bosqich quyidagi ketma-ketlikda ta'sir choralari qo'llaniladi:

1. ijtimoiy shartnomaning bajarilmagan shartlarini o'n besh kun ichida bajarish lozimligi to'g'risida ogohlantirish;

2. ijtimoiy yordam miqdorlarini 15 foizdan 30 foizgacha kamaytirish;

3. ijtimoiy yordam ko'rsatishni bir oydan olti oygacha bo'lgan muddatga vaqtinchalik to'xtatish;

4. ijtimoiy yordam ko'rsatishni bir yil va undan ortiq muddatga to'xtatish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 125-sonli "Oilalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan ko'mak choralari ko'rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda "ijtimoiy shartnoma" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

**Ijtimoiy shartnoma** — kambag'al oilalarga ko'mak choralarining muayyan majburiyatlarni bajarish sharti bilan ko'rsatilishini nazarda tutuvchi shartnoma<sup>1</sup>.

Ijtimoiy shartnoma tegishli mahalladagi yoshlar yetakchisi hamda yordam ko'rsatiladigan shaxs (o'n sakkiz yoshgacha bo'lganlar uchun ularning nomidan ota-onasi yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar) o'rtasida Yoshlar yagona elektron platformasida elektron shaklda rasmiylashtiriladi. Ijtimoiy shartnoma shartlarining bajarilishini monitoring qilish va baholash Yoshlar yagona elektron platformasi orqali avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Yoshlar yetakchisi, zaruratga ko'ra, ijtimoiy shartnoma shartlari bajarilishini joyiga chiqqan holda nazorat qilish huquqiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 206-sonli farmoni "Yoshlar daftari" jamg'armasi tizimida keskin burilish nuqtasiga aylanmoqda. U orqali "Yoshlar daftari" jamg'armasi orqali beriladigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa turdagi yordamlar va ko'maklarni aniq manziliga yetkazilishi ta'minlanadi, Qolaversa, ijtimoiy shartnoma shartlarini bajargan yoshlar rag'batlantirilishi, aksincha, ijtimoiy shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan yoshlarga ta'sir choralari qo'llash orqali yoshlarni bilimini mustahkamlash, ularni sportga jalb qilish, ularga xorijiy tillarni o'rgatishga erishiladi. Yoshlardagi yomon odatlar — erinchoqlik, dangasalik kabi odatlardan voz kechishga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025 yildagi "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 125-sonli "Oilalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan ko'mak choralarini ko'rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori va boshqalar.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-7410357>